

## OILADA TARBIYA ASOSLARI

Qilichova Mohichexra Jumaqul qizi

*TDPU BT-1-bosqich talabasi.*

Tursunaliyeva Navro'za Xusanjon qizi

*TDPU BT-1-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada oilaning bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillardan biri ekanligi, oilada bola tarbiyasi, bolaning tarbiyalanish jarayonida ota-onaning roli va ushbu jarayonda ota-ona va o'qituvchining o'zaro hamkorligi, tarbiya berish jarayonida ota-onaning diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lishi kerakligi, shuningdek, oilada tarbiya berish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga yechim topish kabi masalalar ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, ota-ona, bola, bilim, hamkorlik, muammolar, tarbiya turlari.*

**Annotation.** *This article discusses that the family is one of the social factors influencing the upbringing of children, the upbringing of children in the family, the role of parents in the process of raising a child and the interaction of parents and teachers in this process. the need for parents to have religious and secular knowledge in the process of upbringing, as well as the problems that arise in the process of upbringing in the family and finding solutions to them.*

**Keywords:** *family, education, upbringing, teacher, parent, child, knowledge, cooperation, problems, types of education.*

Oila - tarbiya o'chog'i. Oila - jamiyat negizi. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada shakllanadi.[1].

Hozirgi kunda bola tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bilamizki, tarbiyaning dastlabki bo'gini oilada shakllanadi. Shunday ekan, tarbiyaning shakllanishidagi muammolar va uning yechimlarini avvalo, oiladan, qidiramiz. Bu muammolarga yechim topishda tarbiya tushunchasiga va uning turlariga kichikroq doirada to'xtalib o'tamiz.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganida, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiyani quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan birir sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida

mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish kata ahamiyatga ega.

2. Aqliy tarbiya. Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu borada dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat.

3. Axloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil qiladi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon or-nomus, g'urur, intizom ijtimoiy burchni anglash va boshqalarni shakllantirishdan iborat.

4. Estetik tarbiya. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olishasosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirishni nazarda tutadi.

5. Iqtisodiy tarbiya. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirishga qaratilgan hisoblanadi.

6. Jismoniy tarbiya. badan tarbiya — sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri.

7. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.[2].

«Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonun 2019 yilning 16 dekabrda prezident tomonidan imzolandi. Bu haqda «Huquqiy axborot» kanali orqali xabar berildi.

Qonun bilan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari aniq belgilab berildi.

Xususan, davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.[3].

Oilalar tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruxiy muhit, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko'nikma va malakalar manbaidir. Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni

anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruxida tarbiya topadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruxiy olamiga, xissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.[4].

Bolaga qachondan tarbiya berishni boshlash kerak? Bolangiz sizni gapingizni tushunadigan bo'lganida tarbiya berishni boshlang. Ba'zi bolalar 9-10 oylik bo'lganlarida onasining gapini tushunadi. O'sha paytdan nima mumkin, nima mumkin emasligini aytib boshlang. Har safar fikringizda qat'iy turing. Bir narsa mumkin emasmi, har safar bolangiz shu narsaga tegmasligiga e'tibor bering. Bir safar mumkin emas bo'lsa, ammo keyingi safar ish bilan ovora bo'lib, bolaning quloqsizligiga e'tiborsiz bo'lmang. Hech qachon jahl va nafrat bilan jazolamang. Bolangiz sizning nafratingizni sezadi. Jazolashdan oldin o'zingizni qo'lga oling. Bolani jahl bilan emas sevgi bilan jazolash kerak. Uning qilgan ishidan jahlingiz chiqqani uchun emas, uning xatosini to'g'rilash uchun jazolang. Har doim bergan jazoyingizda me'yor bo'lsin. Shu me'yorga amal qiling. Shunda bolangiz ota yoki onasi o'zini tuta biladigan inson ekanini ko'radi. Tasodifiy xatolar uchun bolani jazolamang.

Darvoqe, bola ko'rish va tarbiyalash baxtiga muayassar bo'lgan onalarning «alla» aytmaganligini tasavvur qilish mumkin emas. Abu Ali ibn Sino ona allasining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri - bolani sekin-sekin tebrating, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa-allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhiyati bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi.[5].

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ishlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Shuning uchun oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor berish kerak. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sir ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish ham oilaviy tarbiyaning yuksak ko'rinishlaridan biridir. bu oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-ona, qon-qardoshlik, avlod-ajdod xislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi.

Bolaning komil inson sifatida shakllanishida muhim omillardan yana biri oilada beriladigan diniy tarbiyadir. Bolaga yoshligidanoq Qur'on va hadislar o'qib berish, tarbiyaga oid oyatlarni yod oldirish va uning mazmun-mohiyatini bola ongiga singdirish, payg'ambarimiz sunnatlariga amal qilib yashashni o'rgatish kerak.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

1. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish



mumkin. So‘rovnomalar ikki turda bo‘lib, ulardan birinchisi har bir o‘quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so‘rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, farzandlar ma‘naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so‘rovnomalardir. Quyida birinchi turidagi so‘rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz:

“Siz o‘z farzandingizni qay darajada bilasiz?” nomli so‘rovnoma mazmuni quyidagicha:

1. Farzandingiz ushbu o‘quv maskanida nechanchi yil tehsil olmoqda?  
2. Farzandingizni so‘ngi o‘quv yilidagi o‘zlashtirish darjasi sizni qoniqtiradimi?

3. Farzandingizning fanlarga bo‘lgan munosabati qanday?

4. Uning fanlarga bo‘lgan qiziqishini baholay olasizmi?

5. Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoa, hamda keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?

6. Farzandingiz mansub bo‘lgan mikro hamda makro muhitning ma‘naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do‘stlashgan, ularning ma‘naviy qiyofasi sizning talablaringsizga javob bera oladimi?

7. Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta‘sir ko‘rsatganliklarining guvohi bo‘lganmisiz?

8. Uning oilada tutgan o‘rni qanday?

9. O‘quv yurti yoki oila o‘rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.[6].

Xulosa qilib aytganda, oilaning farzand tarbiyasidagi ahamiyati juda beqiyos hisoblanadi. Bolada tarbiyani shakllantirishning dastlabki qadami oiladan boshlanadi. Shuning uchun ham ota-onalar farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor berishlari kerak. Tarbiya berish jarayonida maktab bilan hamkorlikni ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari lozim. Barcha tarbiya turlarini uzviy tarzda oilada shakllantirib borishlari darkor. To‘g‘ri tarbiya berilgan bola jamiyatda ham o‘z o‘rnini topa oladi, kelajakda ham yetuk inson bo‘lib yetishadi va hayoti davomida yoshligida olgan tarbiyasi muhim rol o‘ynaydi. Oilada tarbiya berish jarayonida turli hil metodikalar va usullarni qo‘llagan holda Vatanimiz uchun barkamol avlod tarbiyalashlari mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov: “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch”.

2. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova. “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. 190-bet.

3. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/12/17/mtm-tarbiya/>

4. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007.

5. A.K. Munavvarov. Oila pedagogikasi. -T.: «O‘qituvchi», 1994, 19-bet.

6. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova. “pedagogika nazariyasi va tarixi”. 308-bet.